

BITIGLAR USLUBI VA UNI TUSHINISH MASALASI

**Qoraqalpoq davlat universiteti,
O‘zbek filologiyasi fakulteti,
o‘zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti
f.f.f.d. Phd, Muqaddas Allamberganova**

Annotatsiya: Mazkur maqolada qadimgi yozma yodgorliklarda uslub masalasi tahlil qilingan. O‘rxun-Enasoy obidalari matni ustida ishlash orqali eng qadimgi davrlarda uslub va adabiy til masalalari bo‘yicha fikrlarga oydinlik kiritilgan.

Kalit so‘zlar: Devoni lug‘atit-turk, O‘rxun-Enasoy obidalari, badiiy uslub, sintaktik o‘zgarish, bayon usuli, leksik-semantik tahlil.

O‘tmishdagi uslubiy me‘yorlar har qachon ham hozirgi shaklga teng kelavermaydi. Tilimizning uzoq asrli tarixiy taraqqiyoti natijasida fonetik, leksik-semantik, morfologik o‘zgarishlar bilan bir qatorda, sintaktik-stilistik o‘zgarishlar, yozma bayon usulida ham yangilanish sodir bo‘lgan. Buni bir nechta misollarda ko‘rishimiz mumkin.

Maxmud Qashg‘ariy o‘zining “Devoni lug‘atit turk” asarida keltirgan “*tilin tergikā tegir*, -deydi [MK.I.404]. Ushbu maqoldagi tilin-vosita kelishigida kelgan bo‘lib, “**so‘z bilan, nutq bilan, muamoala bilan**” degan ma‘noni beradi; *tergi* -asli dasturxon, bu o‘rinda “ovqat, yegulik, ne‘mat” ma‘nosida, *tegir*-“yetishadi,erishadi” degani. Maqolda kechgan so‘zlarning ko‘chma ma‘nolarini ko‘zda tutib, uni hozirgi tilimizga “Kishi shirin so‘zi bilan dasturxonga [ya‘ni ne‘matga] yetishadi” deb o‘girishimiz mumkin.

Maxmud Qashg‘ariy keltirgan yana bir misol: *Neċā mundus ersä, eš edgü. Neċa egri ersä, yol edgü* [MK.I.426]. Maqol ikkita va har ikkisi ham to‘siqsiz ergash gapli qo‘shma gapdan tuzilgan. Birinchi jumlada kechgan *munduz*-“axmoq,tentak”. *Eš*-“Do‘st,o‘rtoq”. Qolgan so‘zlari tanish. Shunga qaramay maqolni shu turishida, so‘zma-so‘z o‘giradigan bo‘lsak, tuyunli bir ma‘no anglamaymiz. Tagiga yetish uchun har ikki gapda ko‘zda tutilayotgan, yashirin bir tushunchani izlashimiz lozim. Buni ikkinchi gapning egasidan topamiz, unda yo‘l to‘g‘risida so‘z bormoqda. *Yol edgü*-yo‘l yaxshi. Bu jumlada kimsasiz, sahrodagi egri yo‘lga ishora etilmoqda: “qanchalik egri bo‘lsa-da, yo‘lning borligi yaxshi ekani” ta‘kidlanadi unda. Shunga ko‘ra, ushbu gapni “(Kimsasiz cho‘lda) egri bo‘lsa ham yo‘lning bo‘lgani yaxshi (chunki egri yo‘ldan bo‘lsa ham o‘z manziliga yetib oladi)” deb tushunmoq kerak. Ikkinchi gap ma‘nosiga tayanib, birinchi gapda ham “yo‘l” aniqrog‘i “safar”

ma'nosini tiklab olamiz. Shunga ko'ra undan "(Safarda yolg'iz yurish yaxshi meas, shuning uchun) tentak bo'lsa ham, do'sting bo'lgani yaxshi" degan ma'no kelib chiqadi. Endi yuqoridagi maqolning ma'nosi tushunarli bo'ldi: "Safar chog'ida) tentak bo'lsa ham, do'sting bo'lgani yaxshi . (kimsasiz cho'lda) egri bo'lsa ham, yo'lning bo'lgani yaxshi".

To'nyuquq bitigida ko'k turk xoqonlarining tarixi bilan bog'liq o'rin mavjud. Matnning o'qilishi shunday: *Türk bodun qanin bulmayin tabgaçta adrilti, qanlantı, qanin qodup tabgaçqa yana icikti. Tanrı anca tamis arinc: Qan bartim, qaninin qodup icikdiñ. İckdük üçün tənri öl tamis arinç, türk bodun ölti, alqinti, yoq bolti, türk sir bodun yärintä bod qalmadi* [3. Ton, 2-4]. Jumlani *türk bodun qanin bolmayin* shaklida o'qib, uni turk **xalqi xoni bilan bo'lmay** deb talqin qilganlar. Bunday o'qilishida u matnning davomiga mantiqan bog'lanmaydi va mazmunda tushunmovchilik kelib chiqadi. Buning uchun *qanin bolmayin* jumlasini *qanin bulmayin* deb o'qishimiz kerak. Ya'ni > harfini [o] emas [u] deb o'qishimiz lozim, shunda "xoni bilan bo'lmayin" emas, "xonini topmayin" degan ma'no kelib chiqadi; Birikma esa vosita kelishigi emas, tushum kelishigi shaklini oladi. Jumladagi ...*tənri öl tamis arinç* qismi mavjud. Bu birikma "*tanrı*" o'l degan shekilli degan ma'noda. Qadimgi turklarda "xudoning balosiga uchrash, qarg'ishga qolish" ma'nosi ana shunday aytilgan.

Aytilganlarga tayanib, keltirilgan matnni quyidagicha talqin qilish mumkin: "Turk xalqi xonini topolmay, (xo'p sarson bo'ldi: avvaliga) Tabg'achdan ayrildi, o'z xoniga ega bo'ldi, (keyin yana) xonini qo'yib, Tabg'achga qo'shildi. Tangri shunday degan shekilli: "Xon berdim, xoningni qo'yib, taslim bo'lding". "Taslim bo'lgani uchun tangri "o'l" degan [ya'ni qarg'agan] shekilli, turk xalqi o'ldi, tugadi, yo'q bo'ldi, turk sir xalqi yerida "hech bir urug' qolmadi".

Bitiglar uslubini tekshirganda hamda matnni hozirgi tilga tarjima qilish jarayonida mana shunday nozik va o'ta muhim jihatlarga e'tibor qaratilmoqg'i kerakdir. Kelib chiqishiga ko'ra til uslublarining eng eskisi badiiy uslubdir. Badiiy uslubning tarixi xalq badiiy tafakkurining yuzaga kelishi va yuksalishi, xalq og'zaki ijodining tarixi bilan bo'ylashadi. U yozma adabiy tilning, yozma adabiyotning yuzaga kelishidan ancha ilgari kelib chiqqan. Yozma adabiy til, matn tuzish an'anasi endigina yuzaga kelayotgan bir chog'da xalq og'zaki ijodi va uning uslubi allaqchon shakllanib, yuksalish bosqichiga o'tgan edi. Badiiy uslub o'zining og'zaki bosqichidayoq pishib yetilgan. Yozma badiiy uslub o'z qolipini, bichimini og'zaki adabiyotdan oldi. Og'zaki ko'rinishda asrlar osha takomillashib kelgan badiiy uslub uozma adabiyotga ko'chib o'z yo'lini yangi bir shaklda davom ettirdi. Shubois ham boshlab badiiy ijod namunalari yozuvga tushirish uqadar mushkullik tug'dirgan

emas. Qadimgi turkiy adabiyot namoyondalarining ko‘proq xalq ijodiga ergashganligining boisi ham ana shunda edi.

Badiiy uslub, yozma uslublarning boshqa turlaridan ayri o‘laroq, badiiy tasvir vositalarining keng ishlatilishi, bayon tarzi, stilistik o‘lchovlarning erkinligi, turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Masalan, badiiy matnlarda narsa-hodisalarning ta’rifi berilganda ularning sifatlari qo‘shib aytilgan. To‘nyuquq bitigida *qizil qanim*-qizil qonim, *qara terim*-qora terim. Yoki “Qutadg‘u bilig”da yerga, tuproqqa yag‘iz (*yağiz yer*-bo‘z yer), tunga qara (*qara tün*-qaro tun), kunduzga nisbatan *yarug* sifati berilgan (*yarug kündüz*-yorug‘ Kunduz) va b. “Hibat ul-haqoyiq”da: *örün yuz* -oq(yorug‘) yuz, *qizil en*-qizil yuz. “O‘g‘uzxoqon” dostonida: *kök yarug*–“kunderk Ravshan yorug‘” degani. Qiyoslang, boshqa bir o‘rinda: *kün-deg jarug*-kunderk yorug‘. Bitiglarda osmonning ta’rifi ko‘k sifati bilan (*kök tanri*), yer esa yag‘iz sifati bilan (*yağiz yer*) qo‘llaniladi.

Shuningdek, badiiy matn maqol va iboralar, badiiy tasvir vositalarining keng qo‘llanishi bilan ta’sirlidir. Matn uslubi muallifning yoki asar qahramonlarining ruhiy holatini aks ettirishga, asarning badiiy-g‘oyaviy ta’sirini oshirishga xizmat qiladi.

Turkiy xalqlar og‘zaki adabiyotining eng ko‘hna namunalaridayoq badiiy uslubning xarakterli belgilarini kuzatamiz. Qadimgi turk eposi “O‘g‘uzxoqon” dostoni bunga o‘rnak bo‘la oladi. Doston ajoyib bir uslubda yozilgan. Ushbu dostonning ildizi miloddan avvalgi davrlarga to‘g‘ri keladi. Dostonda turkiy xalqlarning qadim ishonchlari o‘z aksini topgan. Ushbu epos yuzyilliklar osha turkiy xalqlarning dunyoqarashi, badiiy tafakkuri asosida rivojlanib kelgan.

Ko‘k turk bitiglarida, Turfon xarobalaridan topilgan eski qo‘lyozmalarda, ilmiy, tarixiy va adabiy manbalarda, o‘rni bilan, qadimgi xalq o‘g‘itlari keltirib o‘tilgan. Qadimgi turk otaso‘zlarning bir qismini XI asrda yashab o‘tgan ulug‘ tilshunos Maxmud Qashg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘atit turk” asarida bergan edi. Olim turkiy so‘zlarning ma’nosini izohlamoq istagida ulardan foydalangan.

Yozma uslubning yuzaga kelishi badiiy uslub tarixidagi muhim bir bosqichdir. Turkiy yozma badiiy uslubning eng ko‘hna, shu bilan birga, o‘ta ajoyib namunalarini biz ko‘k turk mangutoshlarida uchratamiz. Bitiglar ulug‘ yo‘lboshchilar, milliy qahramonlar xotirasiga bitilgan yodnomalar bo‘lib, ularni xalq qahramonlarining ko‘zi tirikligida olib borgan ezgu ishlari. Yurt erki va farovonligi, tinchligi yo‘lida ko‘rsatgan jasoratlari yod etiladi. Bitiglarda tarixiy voqealar ajoyib til bilan, badiiy uslubda bayon etilgan. Tarixiy voqealar milliy qahramonlar obrazini, ularning ideal hayotini madh etish uchun fon bo‘lib xizmat qiladi. Xalq milliy qahramonlarining faoliyati badiiy tilda yoritiladi, mualliflar turli badiiy tilda yoritiladi, mualliflar turli badiiy vositalardan foydalanadi. Mantlarning g‘oyaviy va uslubiy xususiyatlari ularni

badiiy asar darajasiga ko'targan. Bitiglar tarixiy asarlargina emas, qadimgi turk adabiyotining ajoyib namunalari hamdir. Bitiglardan namunalar keltiramiz:

Tāñri küc bertük ücün qañin qağan süsi böri-täg ermis, yağisi qoñ-täg ermis (tangirisi kuch bergani uchun otam xoqonning lashkari bo'ridek ekan, dushmani qo'ydek ekan) [3. K.12]. Bitiglarda xoqonlarning yutuqlari ta'riflanar ekan, tangirining qo'llagani tufayli ana shunday ishlar amalga oshganligi e'tirof etiladi. Bunda *tāñri yarliqaduq ücün* (tangri yorliqagani uchun), *tāñri küc bertük ücün* (tangri kuch bergani uchun) singari iboralardan foydalaniladi. Ushbu jumlada tangri kuch bergani uchun xoqon qo'shinining kuch-qudrati orta borganligi ta'riflanib, uning jasur va yengilmasligi bo'riga, dushmanning o'jizligi, bo'ysunuvchanligi esa qo'yga qiyoslanmoqda.

Qirq artuqi yeti yoli sülāmis, yigirmi sünjüs sünjüsmus. Tāñri yarliqaduq ücün elligig elsirātmis, qağanliğığ qağansiratmis, yağığ baz qilmis, tizligig sökürmus, başliğığig yūküntürmis. (qirq yetti marta lashkar tortgan, yigirma marta jang qilgan. Tangri yorliqagani uchun eli borni elidan ayirgan, xoqoni borni xoqonidan ayirgan, yovni yov qilgan, tizzasi borni cho'ktirgan, boshi borni yukuntirgan). [3. K.15]. O'rxun bitiglarining matn tuzilishi bo'yicha qarashlar ikki xil: ayrimlar mazkur yodnomalarni she'riy asar desa, boshqa birlari ularni nasriy asar sanaydilar. Bitiglarni nasrda yozilgan deb qarovchilarning fikricha, jumlalarning she'rga xos bir ohangda o'qilishiga sabab, ularda sajdan keng foydalanganligidir. Enisey bitiglarining muhim belgilaridan biri esa ularda matn o'likning o'z tilidan so'zlanadi. Mangutoshlarda marhumning yaqinlari, yorug' dunyodan ayriliq dardi, o'kinchi bayon qilinadi. Bitiglardagi undovlarda mungli mazmun yetakchilik qiladi.

Shulardan xulosa qilishimiz mumkinki, qadimgi yozma bitiglar uslubiy jihatdan puxta ishlab chiqilgan. Ularda badiiy uslub me'yorlariga puxta amal qilinganligi yaqqol seziladi. Bitiglarni uslubiy jihatdan tadqiq qilish yozma yodgorliklar haqida ko'plab yangi ma'lumotlarni o'rganishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Э.Р.Тенишев Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Региональные реконструкции. М., 2002. В.102;
2. А.Н.Самойлович. Тюркское языкознание. Филология. Руника. М.,2005 В.46;
3. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил - Т.: 1982, В.12-35;
4. Азимов И, Раҳматов М, Жадимги туркий тил, Тошкент, Низомий номидаги ТДПУ Ризографи-2005, 134 бет.
5. Аманжолов А.С. История и теория древнетюркского письма, Алма-ата: Мектеп-2003, 366 стр.